



JILVADOR RANGLARNING SOKIN NAVOSI

Faxriddinov Muhammad Faxriddin o'g'li

*Ilmiy rahbar: O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institute o'qituvchisi, O'zbekiston
fakhriddinvmukhammad0@gmail.com*

Toshpulatova Umeda Toxirovna

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institute San'atshunoslik fakulteti talabasi

Annotatsiya: *San'at - insonlarning ichki kechinmasini namoyon etadi. U makon va zamonda aks etadi. Makonli san'at bu his-tuyg'ularni tasvirda aks ettirish hisoblanadi. Tasviriy san'atda ko'plab tur va janrlar davrlar o'tishi bilan o'z mavqeyi va o'miga ega bo'la boshladi. Bizning mamlakatimizda san'at tarbiyaning kuchli vositasi bo'lib, insonlarni ilg'or qarashlar bilan qurollantirishda va fikrlarini mustahkamlashda muhim ro'l o'ynaydi. [4] Ushbu maqolada ranglarni his eta bilish va mohiyatini anglash to'g'risida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *bo'yoqlar, tushuncha, mohiyat, rang, tasviriy san'at, ruhiyat, sifat, tabiiylik.*

Olamni o'rab turgan ranglar o'z tarovati va nafisligi bilan inson ko'zlarini qamashtirib, o'zgacha muhitni kasht eta boshlaydi. Inson ko'zlari 10 millionta rangni ajratish xususiyatiga ega. Ko'zda pigmentlarni qabul qilish uchun javob beradigan millionlab hujayralar joylashgan. Vaholangki, inson ko'zlari 200 dan ortiq ranglarni farqlay olish qobiliyatiga ega. Bir rangni o'zi boshqacha tarovat, yorqinlik, tetiklik, ishonch kabi tuyg'ularni mujassamlashtirib, doim olg'a intilishga insonga kuch bag'ishlay oladi. Aynan, tasviriy san'atning bir bo'lagi hisoblanmish ranglarning o'z tarixi, ma'nosi, mohiyati, qo'llanilishi va uyg'unlashuvi bir-biridan farq qiladi. Rangtasvir janrida ranglar moslashuvining o'zni beqiyos bo'lganligi tufayli ham qo'llanilishi jihatidan boshqa amaliy san'atlardan farq qiladi. [1] Shuningdek ishlanishida esa alohida mehrni talab qila boshlashi natijasida, musavvirning g'amxo'rliги tufayli qo'lidagi san'at asarlari ham to'yingan ranglar bilan oziqlanayotgandek bo'ladi. Ranglarni bir-biridan ajratib, uni to'g'ri qo'llay olish anchagina mahorat talab qiladi. Zero, mana shu ranglar bilan rassomlar o'z fikr va g'oyalarni, ichki dunyosidagi olamni ko'rsatib bera olishadi. Qadimda ranglarni tabiiy yo'llar bilan olishgan bo'lib, bunda o'simliklar tufayli o'z kuchini yo'qotmaydigan bo'yoqlar vujudga kelgan. Shuning uchun ham me'moriy obidalarimizdagi bo'yoqlar tabiiy va hali hanuz yorqinligi saqlanib kelmoqda. Bugungi kunda ham bo'yoqlarning sifatli tarzda olinishi natijasida asrlar davomida o'z tarovatini yo'qotmaydigan san'at asarlari yaratilishi mumkin. Bo'yoqlardagi sifat- uni uzoq umr xizmat qilishini ta'minlaydi va kelajak uchun bebaho meros sifatida xizmat qiladi. [2]

Bugungi kunda tasviriy san'atda ranglarni his eta bilish va uni hamroh sifatida tanamizga singdirishimiz kerak bo'lmoqda. Chunki qanchadan-qancha rassomlar o'z vaqtida asarlarni yaratishda o'sha muhit, vaqt va ranglar bilan birga yashay olishganlar. Biz moziyni yod etib, o'tmishdagi voqealarni asarlarda aks ettirar ekanmiz, unda o'sha davr ranglarni ham o'rnida qo'llay olishimiz kerak. Mana shundagina asarni ko'rgan insonlar



o'tmishdagi voqealar rivoji sahnasida o'zlarini ham o'sha davrning bir bo'lagi sifatida his etib, tom ma'noda unutimas zavq olishadi. O'tmishdagi holatni tabiiy aks ettirgan rassomlardan biri bo'lmish Pavel Benkov hisoblanadi. [6] Pavel Benkov o'tgan asrning yorqin an'analarini aks ettira olganligidan, ularda ishlatilgan bo'yoqlar shu darajada tabiiy ifodalangan, har bir kichik detallar ham o'sha davrdan keltirib qo'yilgandek ko'rinadi. Undan tashqari, o'tgan asrning ilm yo'lida jonlaridan kechgan jadidlarimiz hayoti ham aks etganligining o'zi e'tiborni jalb qila boshlaydi. O'zgacha tarovat bag'ishlovchi asarlar yaratgani tufayli unga “Quyoshli rassom” deya nom qo'yishgan. Hatto bundan oldingi va keyingi rassomlar ham Benkov singari milliy ranglarni suratlarda singdirib, tabiiylikni saqlay oladigan darajada qo'llay olishganlari kam. Rassomdan qolgan asarlar hozirgi kunda o'tmishni kelajak uchun jonlantira olish xususiyatiga ega bo'lmoqda. [3]

San'atning har bir yo'nalishida bo'lmasin, asosiy o'rinni ranglar egallaydi. Shuningdek, ulardagi bo'yoqlar turi va ishlatilish texnikasi kabi bir-biridan farq qiladi. Ranglarni o'z o'rnida qo'llay ola bilish va ranglarni bir-biriga moslashtirish oz-muncha ishni talab qilmaydi, albatta. Ranglarning kishi ruhiyatiga ta'siri haqida mashhur nemis olimi va shoiri, rangshunos Gyote, rus rangshunosi V. Bexterovlarning fikrlari diqqatga sazovordir. [12] Gyote o'zining “Ranglar nazariyasi” nomli mashhur asarida “sariq rang ko'zni quvontirib, yurakni kengaytiradi, uni ko'rganda ruhimiz tetik bo'ladi va biz darhol iliqlikni his etamiz”- deb yozgan edi. Ranglarning kishilarga ta'siri to'g'risida fransiyalik olim Jak Vinonning fikrlari diqqatga sazovordir. [8] U rangning inson ongi, kayfiyati ta'siri haqida gapirib, rang kishida xotirjamlik va hayajonni hosil qilishi, hatto inson qalbini larzaga solishi, ba'zi hollarda so'g'lig'ini falokatga giriftor etishi mumkinligi haqida yozgan edi. [1] Undan tashqari xorijiy mamlakatlarda ranglarning inson ruhiyatiga ta'sirini yaxshi bilgan tadbirkor-biznismenlar savdo ishlarini yaxshilash maqsadida rastoranlar, savdo rastalari, do'konlar, ishlab chiqarilgan mahsulotlarning kishilar e'tiborini o'ziga tortadigan ranglar bilan bo'yalishiga alohida e'tibor qaratadilar. Ayniqsa, libos dizaynerlari tomonidan yengil sanoatda keng tatbiq etiladi. Milliy liboslarimizda ham ranglarning jilosi ko'ngillarga orom bag'ishlab va nafosat bilan to'yintirib turadi.

Xulosa qilib aytish joizki, tasviriy san'atda ranglarni tushunish, mohiyatini to'la-to'kis anglay olishlik va to'g'ri foydalana bilishlik muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Insonning o'z ichki dunyosi bo'ganligi kabi har bir ranglarning ham o'ziga yarasha dunyosini ko'rsatib beradi. Ranglar olamiga kirish uchun uni albatta his eta bilishimiz zarur. Zero, nafis bo'yoqlar tufayli yaratilayotgan mo'jaz asarlar qadri bebaho bo'ladi. Ma'naviyatni o'stirishda va dunyoqrashni shakllantirishda ham o'z o'rniga ega bo'lib, kelajak avlod uchun muhim qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Aynan ranglardagi tabiiylikni yoshlar uchun yetkazib bera olishlik bizning burchimizga kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. R. Xasanov. “Tasviriy san'at asoslari”. G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2009. – 204 bet.



2. S. S. Bulatov. "Rangshunoslik". O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent – 2009. – 160 bet.
3. D.I. Mamurova. N.M. Avliyakulova. Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2021-yil. 132- bet.
4. F. Erkabayeva. N. Mirsolihova. "Rangtasvir". "Info capital group". Toshkent. – 2018 yil. 92-bet.
5. Virgil Elliott. Traditional Oil Painting. USA. 2007. page-296.
6. Teshaeovich, S. F. (2021). Alisher navoi's interpretation of global ideas on human perfection. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(11), 542-550.
7. Shodiyev, F., Saidullayeva, S., Abdullayeva, Z., & Tirkasheva, M. (2023). Children's Literature in the Formation of Professional Competence Position. *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 4(6), 73-78.
8. Noel Gregory, James Horton. Oil Painting: Step by Step. *США*. 2011. page-236.
9. Faxriddin o'g'li, F. M. (2023). DUNYO TA'LIM USLUBLARIDAGI SARA DURDONALAR... *Научный Фокус*, 1(7), 190-193.
10. Anita Xempton, Jon Loulin, Tom Svimm, Karolin Simmerman. Oil Painting: Step by Step. *США*. 2004. P. 120.
11. Fakhriddinov M. The impact of modern technology on education //Fan va ta'lim integratsiyasi jurnali. – С. 165-170.
12. Shodiyev, F., Kiyamova, S., Karshyeva, G., & Muradullayeva, D. (2023). The Technology of Preparation of the Future Primary School Teacher in the Global Process. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, 4(6), 108-111.
13. Zhuraev, K. K., & Kadirov, Z. K. (2021). Features of the Artistic Life of Samarkand (In the 1920s). *European journal of innovation in nonformal education*, 1(2), 129-131.
14. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). Art and Architecture of Europe. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN*, 5(1), 16-18.
15. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). EXPLORING THE SPECIFIC INNOVATIONS OF COMPUTER GRAPHICS IN DRAWING SCIENCE. *Научный Фокус*, 1(10), 56-58.
16. Suvankulov, S. M. (2017). Master's thesis.